

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

**60410200-“Buxgalteriya hisobi” ta‘lim yo‘nalishi
206-207-guruh talabalari uchun**

NARZIYEVA GUZAL BAXTIYOROVNAning

“Pul va banklar” fanidan fanidan

**“Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari” mavzusida ochiq ma‘ruza
darsining ishlanmasi**

Samarqand – 2026

Tuzuvchi:

G. Narziyeva– “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

Xudoyberdiyev N.U – SamISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Alikulov A.I. – SamDVMCHBU “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası mudiri i.f.d professor

**Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma
boshlig‘i**

Sh. Kurbanov

“Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari” mavzusidagi ma’ruzani o‘qitish texnologiyasi

<i>Ma’ruza vaqti: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 50</i>
<i>Ma’ruza rejasi/ o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Nobank kredit tashkilotlari va ularni tashkil etish. 2. Mikrokredit tashkilotlari, ularning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari. 3. Lombardlar va ularning tashkil topishi.
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i>	Talabalarga lombardlar faoliyatining iqtisodiy mohiyati, kreditlash mexanizmi, afzallik va kamchiliklari hamda ularning moliyaviy tizimdagi o‘rni haqida tizimli bilim berish, amaliy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - <i>Talabalarda nobank kredit tashkilotlari faoliyati haqida ilmiy va tizimli tushuncha shakllantirish</i> - <i>Lombardlarning iqtisodiy mohiyati va funksiyalarini tushuntirish va izohlash</i> - <i>Garov asosida kreditlash mexanizmini bosqichma-bosqich o‘rgatish</i> - <i>Talabalarga lombard kreditlari bo‘yicha hisob-kitoblarni bajarishni o‘rgatish</i> - <i>Moliyaviy ko‘rsatkichlarni (foiz stavkasi, kredit summasi) tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish</i> - <i>Talabalarda tanqidiy va tahliliy fikrlashni shakllantirish</i> - <i>Real hayotiy vaziyatlar asosida mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish</i> 	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Nobank kredit tashkilotlari faoliyati xususiyatlarini tushunadi; - Mas’uliyatli qarz olish madaniyatini shakllantirish jihatlarini o‘rganadi; - Moliyaviy ko‘rsatkichlarni (foiz stavkasi, kredit summasi) tahlil qilishni o‘rganadi.

- Lombardlarning afzallik va kamchiliklarini solishtirish va baholashga o'rgatish - Moliyaviy savodxonlik va mas'uliyatli qarz olish madaniyatini shakllantirish	
O'qitish metodlari	Muammoli ma'ruza, aqliy hujum.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, noutbuk, videoproektor va boshq.
O'qitish sharoiti	Videoproektor bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
Qaytar aloqaning yo'l va vositalari	Og'zaki nazorat: Blits-so'rov, test.

“Moliya bozorining fundamental tahlili” mavzusidagi ma’ruzani o‘qitishning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni (Pedagogik texnologiya – muammoli, klaster)	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1.Mavzuning nomi va rejasi e'lon qilinadi. 1.2.Mavzuni to'liq o'zlashtirish uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar beriladi. 1.3. Mavzuda ko'p ishlatiladigan atama va iboralar bilan tanishtiriladi 1.4.Mavzu davomida o'rganilayotgan muammolarga to'xtalanadi	Tinglaydilar Yozib oladilar Ma'ruza matnini ARMdanda (O'UM, darslik, o'quv qo'llanma) oladilar Ma'ruza bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1.Ma'ruza matni tarqatiladi. 2.2.Ma'ruza bo'yicha qo'yilgan reja savollari keltirilgan taqdimotlar videoproektor orqali ko'rsatiladi, har bir savol bo'yicha xulosa qilinadi hamda “bumerang” usulida savol bilan murojaat qilinadi. 2.3.Doskada asosiy faktlar, hisoblash formulalari hamda hisoblash jarayonlari	Tinglaydilar Yozib oladilar Muhim joylarini belgilab oladilar Tushunmagan joylaridan savollar berishga tayyorlanadilar

	hayotiy aniq misollar ishlab chiqarish bilan bog'liq holda yozib ko'rsatiladi	
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1.Ma'ruzada o'rganilgan mavzu bo'yicha ko'tarilgan muammolar va auditoriyaga tashlangan savollar bo'yicha xulosalar qilinadi 3.2. Talabalar qiziqqan va tushunmagan masalalar bo'yicha savollariga javob oladilar.	Savol beradilar. Vazifani yozib oladilar

Ma'ruza mavzusi: Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari

Reja:

- 12.1. Nobank kredit tashkilotlari va ularni tashkil etish.
- 12.2. Mikrokredit tashkilotlari, ularning turlari va o'ziga xos xususiyatlari.
- 12.3. Lombardlar va ularning tashkil topishi

Tayanch iboralar: kredit uyushmasi, kredit uyushmalari passiv operatsiyalari, kredit uyushmalari aktiv operatsiyalari, lombardlar, lizing mikrokredit tashkilotlari, kliring muassasalari, kredit kooperativlari, faktoring kompaniyasi, mikrokredit, mikrolizing pul o'tkazmalari.

12.1. Nobank kredit tashkilotlari va ularni tashkil etish.

Nobank kredit tashkilotlari deganda tor doirada ixtisoslashgan va alohida bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqi bo'lgan kredit tashkiloti tushuniladi. Biroq, nobank kredit tashkilotlari har qanday bank operatsiyasini amalga oshira olmaydi.

Masalan: ular tijorat banklari amalga oshiradigan quyidagi muhim operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega emas:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarga hisob –raqam ochish va yuritish

2. Yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini depozit hisob-raqamlariga jalb etish

3. Mazkur pul mablag'larini o'z nomiga joylashtirish

Har qanday mamlakatning kredit tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib tijorat banklari hisoblanadi. Ammo tijorat banklari harqanday operatsiyani yuksak darajada bajara olmaydi. Shu sababli alohida bank operatsiyalarini bajarishga ixtisoslashgan kredit tashkilotlari paydo bo'ldi .

Xalqaro amalyotda nobank kredit tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

1. Kredit uyushmalari. Ular faqat o'z-o'zlariga depozit qabul qiladi va o'z-o'zlariga kredit beradi.

2. Mikro kredit tashkilotlari. Mikro kredit tashkilotlar aholining iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan aktiv ammo kam ta'minlangan qatlamlariga kredit beradi. Ular depozit va omonatlar qabul qilish huquqiga emas.

3. Lombardlar oltin va tilla taqinchoqlarni garovga olish yo'li bilan kredit beradi.

4. Lizing kompaniyalari

5. Faktoring kompaniyalari.

Lizing kompaniyalari bahosi yuqori va muddatli foydalaniladigan tovarlarni to'la qiymatda sotib olib ularni lizingga beradi. A. Moliyaviy lizing B. Operativ lizing Faktoring kompaniyalari tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni sotib olish, ularni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida yuritish bilan shug'ullanadi. Kliring muassasalari.

Kliring palatalari banklar o'rtasida to'lov instrumentlari bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

- Kredit kooperativlari ma'lum bir sohada faoliyat yuritayotgan subektlarni kreditlash maqsadida tashkil etilgan.

- Pensiya fondi

- Inkossatsiya tashkilotlari. Bu tashkilotlar naqd pullardan va to'lov hujjatlarini inkossatsiya qilish bilan shug'ullanadi. Lekin O'zbekistonda bunday tashkilotlar yo'q. Respublikamizda naqd pullarni inkassatsiya "Respublikamiz inkassatsiya birlashmalari" tomonidan amalga oshiradi.

- Sug'urta kompaniyalari. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatidagi quyidagi xususiyatlariga ega: Nobank kredit tashkilotlari faqat alohida olingan bank operatsiyalarini amalga oshiradi. Nobank kredit tashkilotlari faoliyati tor doirada ixtisoslashgan bo'ladi. Bu ularni raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Chunki nobank kredit tashkilotlari bitta sohada sifatli va arzon bitta mahsulot yarata oladi. Nobank kredit tashkilotlari faoliyati past riskli hisoblanadi. Nobank kredit tashkilotlari faoliyati Markaziy Bank tomonidan Tijorat banklari faoliyati kabi qattiq nazorat qilinmaydi

Nobank kredit tashkilotlarining resurs bazasi quyidagi manbalardan tashkil topadi:

a) Ustav kapitali

b) Boshqa tashkilotlarga berilgan moliyaviy yordam

c) O'zining a'zolaridan jalb qilingan pul mablag'lari

d) Tijorat banklarining kreditlari

e) Sof foyda

f) Foyda hisobidan shakllantirilgan zaxiralar

g) O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi

Nobank kredit tashkilotlarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyati yo'nalishlariga mos ravishda shakllanadi. Masalan: Kredit uyushmalari o'zlariga a'zo bo'lgan subektlarni kreditlash maqsadida tashkil etiladi. Shu sababli kredit uyushmalari bitta aktiv operatsiyaga ega. U ham bo'lsa kredit operatsiyasidir. Mikro kredit tashkilotlari aholining iqtisodiy lekin kambag'al qatlamlariga kredit beradi. Mikro kredit tashkilotlarining asosiy aktiv operatsiyasi bu kichik summada,

past foiz stavkasida kredit berish operatsiyasidir. Faktoring kompaniyasi jo`natilgan tovarlar va ko`rsatilgan xizmatlar bo`yicha debitor qarzdorlarini inkassatsiya qilish bilan shug`illanadi. Ular tovar hujjatlarini 2 ta shart asosida regress huquqi bilan va regress huquqsiz sotib oladi .

Tovar hujjatlari regress huquqi bilan sotib olingan to`lovchi to`lovga noqobil bo`lib qolganda faktoring kompaniyasiga to`lovni mol etkazib beruvchiga undirish huquqi saqlanib qoladi.

Agar tovar hujjatlari regress huquqsiz sotib olinsa, to`lov riski to`liq ya`ni 100 % faktoring kompaniyasining zimmsida qoladi. Chunki to`lovchi to`lovga noqobil bo`lib qolganda factoring kompaniyasi to`lovni undirish bo`yicha mol etkazib beruvchiga murojat qila olmaydi. O`zbekiston Respublikasida faktoring kompaniyalari mavjud emas. Faktoring operatsiyalarini tijorat banklari bajaradi. Ammo ular tovar hujjatlarini regress huquqi bilan sotib olish mumkin emas. Bundan tashqari, O`zbekiston banklari faktoring operatsiyalarini amalga oshirayotganda bu operatsiyalarning buxgalteriya hisobini yuritmaydi. Xolbuki taraqqiy etgan mamlakatlarda factoring kompaniyalari faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobini ham yuritadi.

Lizing kompaniyalari uzoq muddatli kreditlar bozorida tijorat banklari bilan raqobat qila oladi. Ular bahosi yuqori va uzoq muddat faydalaniladigan tovarlarni uzoq muddatli ijaraga beradi. Lizing shartnomalarining o`rtacha muddati 3-5 yilni tashkil qiladi. Ammo lizing kompaniyalarining zaif jihati bor, ya`ni lizing kompaniyalarida resurslar etishmaydi. Ular faoliyatini asosan o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirishga majbur. Shu sababli ular tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarini keng ko`lamda jalb qiladilar. O`zbekiston Respublikasida lizing operatsiyasi bilan tijorat banklari va lizing kompaniyalari shug`illanadi. Asosiy muammo shundaki, to lizing obekti lizing-oluvchi tomonidan qabul qilib olinmagunga qadar tijorat banklari lizing kreditiga foiz hisoblay olmaydi.

Kliring uylari (palatalari) nobank kredit tashkiloti hisoblanadi va ular chek va hosilaviy qimmatli qog`ozlar bo`yicha o`zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Kliring palatasi har bir ishtirokchi bankka schyotlar ochadi. Bu schyotlar mazmuniga ko`ra aktiv-passiv schyotlar hisoblanadi, ya`ni bu schyotlar debitli qoldiqqa ham ega bo`lishi mumkin, kreditli qoldiqqa ham ega bo`lishi mumkin. Kliring palatasi bir ish kuni mbaynida barcha hisob-kitoblarni amalga oshiradi va ish kuni so`ngida har bir bankka uning hisob-raqamidan ko`chirma beradi. Agar bank ko`chirmani debitli qoldiq bilan olgan bo`lsa, demak unga to`la berishadi.

Ko`pchilik mamlakatlarda nobank kredit tashkilotlari faoliyati markaziy bank Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Ammo Angliya, Germaniya, Lyuksenburg kabi mamlakatlarda nazorat funksiyasiga ega emas. Shu sababli ushbu mamlakatlarda nobank kredit tashkilotlarining faoliyati moliya bozorining rigulyatori tomonidan nazorat qilinadi. Nazorat jarayonida nobank kredit tashkilotlarining ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan talablar qo`yiladi. O`zbekiston Respublikasida Lombard ochish uchun minimal ish haqining 40 baravarining miqdorida pul mablag`lari kerak. Mikrocredit tashkiloti uchun 100 ming

evro ekvivalenti miqdorida pul mablag'leri kerak. Iqtisodiy adabiyotlarda olimlarning bir guruhi "Mikrokredit tashkilotlarining faoliyati nazorat qilinmasligi kerak" degan fikrni ilgari surishadi. Kredit uyushmalari taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari bilan raqobat qila oladigan darajada shakllangan kredit muassasalari hisoblanadi. Ular o'z a'zolaridan depozitlar qabul qilish huquqiga ega. Shu sababli ularning faoliyati nazorat organlari tomonidan qattiq nazorat qilinadi.

12.2. Mikrokredit tashkilotlari, ularning turlari va o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasida nobank kredit tashkilotlarining, shu jumladan, mikrokredit tashkilotlarini faoliyat yuritishi va tegishli xizmatlarni ko'rsatishi uchun yetarli darajadagi tashkiliy-huquqiy baza yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida mikrokredit tashkilotlari o'z faoliyatlarini yolga qoyishlari va olib borishlariga asos bo'lib hisoblanadi. Mikrokredit tashkiloti atamasi "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi qonunning 3 moddasida quyidagicha izohlanadi:

Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ushbu qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs mikrokredit tashkilotidir.

Mikrokredit tashkilotlari tijorat tashkiloti sifatida tijorat banklarida hisob raqamlarini ochish orqali faoliyatini amalga oshiradi. Hisobvaraqlami ochish, yopish, boshqa banklarga ko'chirish Markaziy bankning tegishli yoliqnomalari asosida amalga oshiriladi.

Mikrokredit tashkiloti ishlab chiqarish, sug'urta, savdo- vositachilik kabi faoliyatlar bilan bevosita shug'ullanishga haqli emas. Mikrokredit tashkiloti quyidagi turlardagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi mumkin:

- mikrokreditlar yoki mikroqarzlarni berish;
- qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring);
- mikrokredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi) berish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan iste'mol kreditlari berish kabilar shular jumlasidandir.

Shu o'rinda mikrolizing, mikrokredit va mikroqarzga O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonunida berilgan ta'rifni keltirib olamiz.

Mikrokredit - qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir. Mikrokredit qarz oluvchiga pul mablag'larini shartnomaga muvofiq muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida (maqsadli mikrokredit) berilishi mumkin.

Mikroqarz - mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada

muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa tolovlilik sharti asosida ham beriladigan pul mablaglaridir.

Mikrolizing mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin mol-mulk olish hamda unga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir. Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Mamlakatimizda keyingi paytlarda aholiga mikrocreditlar, mikroqarzarlar va mikrolizinglar berish borasida banklar bilan bir qatorda mikrocredit tashkilotlari ham o'z xizmatlarini kengaytirib bormoqdalar.

Mikrocredit tashkiloti mikrocreditlar, mikroqarzarlar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bogliq maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatishi mumkin.

Mikrocredit tashkiloti:

- qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qabul qilishga;
- jismoniy shaxslardan qarz mablag'larini jalb qilishga, bundan o'z muassislari (ishtirokchilari, mulkdorlari) mustasno;
- o'z muassislarining (ishtirokchilarining, mulkdorlari- ning) majburiyatlari bo'yicha kafil bolishga yoki kafolat beruvchi bo'lishga, shuningdek, ularga o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning boshqa usullarini taqdim etishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mikrocredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishga doir vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy tizimning barqarorligini saqlash, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi Qonuniga muvofiq mikrocredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda:

- mikrocredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdorini belgilaydi;
- moliyaviy va kassa operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish qoidalarini, shuningdek, iqtisodiy normativlarni belgilaydi;
- ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar uchun foizlarni hisoblash tartibini tasdiqlaydi;
- mikrocredit tashkilotlarining faoliyatini tekshiradi va ularning faoliyatida aniqlangan mikrocredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishlarini bartaraf etishga oid bajarilishi majburiy bolgan ko'rsatmalar beradi;
- mikrocredit tashkilotining faoliyatini auditdan otkazishga doir talablarni belgilaydi;
- mikrocredit tashkiloti ijro etuvchi organi rahbarining malakasiga doir talablarni belgilaydi;

- mikrocredit tashkiloti tomonidan mikrocredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari va belgilangan iqtisodiy normativlar buzilgan taqdirda, ustav fondining belgilangan eng kam miqdorining bir foizigacha jarima undiradi;
- mikrocredit tashkiloti tomonidan ayrim moliyaviy operatsiyalar o'tkazishni uch oygacha bolgan muddatga cheklaydi;
- mikrocredit tashkiloti litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turadi yoki tugatadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-sonli Qaroriga asosan 2017 yil 1 oktabrdan mikrocredit tashkilotlari ustav kapitalining minimal miqdori - 2,0 mlrd so'm etib belgilandi.

Mikrocredit tashkiloti filial tashkil qilish uchun:

- qoniqarli moliyaviy holatga ega bolishi;
- qonun hujjatlari va Markaziy bankning talablariga javob berishi;
- mikrocredit tashkiloti kunlik jamlama buxgalteriya balansini tuzish uchun kerakli dasturiy-texnik vositalarga hamda malakali buxgalteriya xodimlariga ega bolishi;
- mikrocredit tashkiloti litsenziya olingan kun dan boshlab kamida ikki yildan ziyod o'z faoliyatini amalga oshirgan bolishi;
- Markaziy bank talablariga javob beradigan tegishli xonalar va uskunalariga ega bolishi lozim.

Mikrocredit tashkiloti quyidagi holatlarda qoniqarli moliyaviy holatga ega deb topiladi:

- joriy yil natijalariga ko'ra sof foydaga ega bolganda;
- muddati olingan kreditlarning summasi oxirgi bir yil davomida mikrocredit tashkiloti kredit portfelining 5% dan kam miqdorini tashkil etganda;
- mikrocredit tashkilotining jami kapitalidan ustav fondi va tekinga olingan mulklar chegirilgandan so'ng qolgan kapitali oxirgi bir yil davomida mikrocredit tashkiloti aktivlarining kamida 10% ni tashkil etganda mikrocredit tashkilotlari o'z filiallarini tashkil etishi mumkin boladi.

12.3. Lombardlar va ularning tashkil topishi

Lombardlar - ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo'lib, asosiy faoliyati fuqarolaming harakatdagi mulklari garovi ostida, qisqa muddatli kreditlar berish va buyumlarni saqlash bilan shug'ullanadi. Lombardlarning ixtisoslashganlik darajasiga qarab buyumlar, oltin buyumlar va avtoulavlar garov sifatida qabul qilinadi. Buyumlar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida baholanadi. Lombard va kredit oluvchi shaxs o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida kredit beriladi.

Dastlabki lombardlar XV asrlarda Fransiyaning Lombardiya shahrida savdogarlar tomonidan tashkil etilgan. Hozirgi kunda amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan "lombard" termini shu tariqa paydo bolgan.

Lombardlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ushbu muassasalar mijozning ehtiyoji uchun zarur bolgan summani juda tez fursatda berish imkoniyatiga

egaligidir. Bunda lombard va qarz oluvchi o'rtasida, ko'pchilik hollarda qimmatbaho buyumlar garov sifatida foydalaniladi. Lombard tashkiloti berilgan kredit uchun undirilishi lozim bo'lgan foiz to'lovini, ko'pchilik hollarda, oldindan kredit summasidan chegirib qoladi.

Lombardlar — bu ko'char mulk garovi asosida qisqa muddatli kreditlar berishga ixtisoslashgan moliyaviy institutlardir. Ular moliyaviy vositachilik tizimining muhim elementi sifatida qaraladi.

Iqtisodiy nazariyada lombard faoliyati quyidagi konsepsiyalar bilan izohlanadi:

- **Likvidlik nazariyasi** – lombardlar aholiga tezkor pul oqimini ta'minlaydi
- **Xavfni diversifikatsiya qilish nazariyasi** – kredit xavfi garov orqali minimallashtiriladi
- **Moliyaviy inklyuziya konsepsiyasi** – bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan qatlamlarni qamrab oladi

Shu jihatdan lombardlar bank tizimini to'ldiruvchi muhim institut sifatida namoyon bo'ladi.

2. Lombardlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Lombardlarda kreditlash jarayoni soddalashtirilgan va quyidagi elementlardan iborat:

2.1. Garov obykti

Asosan:

- qimmatbaho metallar (oltin, kumush)
- zargarlik buyumlari
- maishiy texnika
- elektron qurilmalar

2.2. Kreditlash mexanizmi

Kredit miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\text{Kredit summasi} = \text{Garov qiymati} \times (0.6 - 0.8)$$

Bu lombardlar uchun xavfni kamaytirish vositasi hisoblanadi.

2.3. Foiz siyosati

Lombardlarda foiz stavkalari yuqori bo'lib, bu quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- yuqori operatsion risk
- qisqa muddatlilik
- mijozlarni tekshirish tizimining soddaligi

3. Lombardlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi

Lombardlar faoliyatining samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin:

- **Rentabellik darajasi**
- **Likvidlik ko'rsatkichi**
- **Kredit portfeli sifati**
- **Garov realizatsiyasi darajasi**

Lombardlar uchun asosiy daromad manbai — foiz daromadlari hisoblanadi. Shu bilan birga, qaytarilmagan kreditlar bo'yicha garovni sotish orqali ham foyda olinadi.

4. Lombardlar faoliyatining afzalliklari va muammolari

Afzalliklari:

- Tezkor moliyaviy xizmat
- Minimal byurokratiya
- Kredit tarixiga bog‘liq emas
- Risklarni boshqarishning oddiy mexanizmi

Muammolari:

- Yuqori foiz stavkalari
- Ijtimoiy xavflar (qarzdorlik ortishi)
- Garov yo‘qotilishi ehtimoli
- Tartibga solish mexanizmlarining yetarli emasligi

5. O‘zbekistonda lombardlar faoliyatining huquqiy asoslari

O‘zbekistonda lombardlar faoliyati nobank kredit tashkilotlari sifatida tartibga solinadi. Ular moliyaviy nazorat organlari tomonidan litsenziyalanadi va nazorat qilinadi.

Asosiy jihatlar:

- Faoliyat litsenziya asosida amalga oshiriladi
- Mijozlar huquqlari qonun bilan himoyalangan
- Foiz stavkalari bozor asosida shakllanadi

6. Lombardlar faoliyatini rivojlantirish istiqbollari

Kelgusida lombardlar faoliyatini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- Raqamli lombard xizmatlarini joriy etish
- Onlayn baholash va kreditlash tizimlarini rivojlantirish
- Foiz siyosatini optimallashtirish
- Mijozlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish

Shuningdek, fintech texnologiyalarining joriy etilishi lombardlar faoliyatini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Lombardlar moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, aholining qisqa muddatli moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda katta ahamiyatga ega. Ularning faoliyati iqtisodiy jarayonlarda likvidlikni ta‘minlash, moliyaviy inklyuziyani oshirish va norasmiy kredit bozorini qisqartirishda muhim rol o‘ynaydi.

Biroq, yuqori foiz stavkalari va ijtimoiy xavflar lombardlar faoliyatini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli, ushbu sohani tartibga solish va innovatsion rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Test topshiriqlari:

1. Nobank kredit tashkilotlari bu:

- A) Faqat depozit qabul qiluvchi tashkilotlar
- B) Bankdan tashqari kredit beruvchi moliyaviy tashkilotlar
- C) Faqat davlat tashkilotlari
- D) Sug‘urta kompaniyalari

2. Quyidagilardan qaysi biri nobank kredit tashkilotiga kiradi?

- A) Tijorat banki
- B) Markaziy bank
- C) Lombard

D) Soliq qo‘mitasi

3. Mikromoliya tashkilotlarining asosiy vazifasi:

- A) Katta korxonalarni moliyalashtirish
- B) Kichik biznes va aholiga kredit berish
- C) Soliq yig‘ish
- D) Valyuta kursini belgilash

4. Lombardlar kreditni qanday asosda beradi?

- A) Ish haqi asosida
- B) Garov asosida
- C) Kredit tarixiga qarab
- D) Sug‘urta asosida

5. Nobank kredit tashkilotlari banklardan nimasi bilan farq qiladi?

- A) Kredit bermaydi
- B) Depozit qabul qilmaydi (odatda)
- C) Faoliyat yuritmaydi
- D) Faqat davlatga tegishli

6. Kredit uyushmalari kimlarga xizmat ko‘rsatadi?

- A) Faqat davlatga
- B) Faqat banklarga
- C) A‘zolariga
- D) Faqat tadbirkorlarga

7. Nobank kredit tashkilotlarining asosiy ustunligi:

- A) Past foiz stavkasi
- B) Tezkor xizmat ko‘rsatish
- C) Cheksiz kredit berish
- D) Soliq yig‘ish

8. Qaysi biri nobank kredit tashkiloti turi emas?

- A) Lombard
- B) Mikromoliya tashkiloti
- C) Tijorat banki
- D) Kredit uyushmasi

9. Nobank kredit tashkilotlarida riskni kamaytirish usuli:

- A) Soliq oshirish
- B) Garov va monitoring
- C) Kredit bermaslik
- D) Narxlarni oshirish

10. Fintech texnologiyalar nimani anglatadi?

- A) Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi
- B) Moliyaviy texnologiyalar
- C) Qurilish texnologiyasi
- D) Transport tizimi

Takrorlash uchun savollar:

1. Nobank kredit tashkilotlari deganda nimani tushunasiz?
2. Nobank kredit tashkilotlarining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
3. Nobank kredit tashkilotlari banklardan qanday farq qiladi?
4. Nobank kredit tashkilotlarining iqtisodiyotdagi roli nimada?
5. Nobank kredit tashkilotlarining asosiy turlarini sanab bering

6. Mikromoliya tashkilotlari qanday faoliyat yuritadi?
7. Kredit uyushmalari qanday tashkil etiladi va kimlarga xizmat ko'rsatadi?
8. Lombardlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Nobank kredit tashkilotlarida risklar qanday boshqariladi?
10. Nobank kredit tashkilotlarining afzallik va kamchiliklarini tushuntiring

TAQDIMOTLAR


“Insert” texnikasi bilan ishlash qoidasi

1. Ma'ruzalar matnini o'qing va o'qigan betlardagi qatorlarning yon chetlariga quyidagi belgilarni qo'yib borib ushbu usulni qo'llang:

V - bilgan bilimlarimga mos (ma'lumotlar) to'g'risida

- (minus) - bilgan bilimlarimga qarama-qarshi bilimlar to'g'risida

+ (plyus) - bilgan bilimimga nisbatan yangi ma'lumot hisoblanadi



2. Olgan bilimlaringiz to'g'risidagi ma'lumotlarni jadval shaklida tizimlashtiring:

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				

Vizual materiallar



1 – rasm. Nobank kredit tashkilotlari tashkiliy shakli va ixtisoslashuviga ko'ra turlari¹

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. Pul va banklar. Darslik. –Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2021. 446 bet.
2. Mardonova A.T. Pul va banklar. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. 216 bet.
3. Z.Mamadiyarov. Bank ishi. T.: « Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» nashriyoti, 2021. –234 b.
4. Dusmurotov R.D. Moliya. Darslik. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2013. 426 b.
5. Xavier F. «Microeconomics of Banking». The MIT Press Cambridge, Massachusetts London, England 2021. 349 p.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 398-bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. – 481 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
8. Omonov A.A., Qoraliyev T.M “Pul, kredit va banklar” Darslik. –Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2012. 364 b
9. Абрамова М.А. Деньги, кредит, банки. – М.: КНОРУС, 2014. 245 сг

Axborot manbaalari

1. www.lex.uz
2. www.mf.uz
3. www.soliq.uz

